



11-SON

O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA
ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI

20.09.2022

MAKTABDAN TASHQARI TA'LIM MUASSASALARI BILAN MAHALLA
FUQAROLAR YIG'INLARI BILAN HAMKORLIK MASALALARI**Maqsuda Badalova**

-A. Avloniy nomidagi milliy
tadqiqot instituti bo'lim mudiri,
(PhD)falsaфа doktori,

Baxtiyor Haqberdiev

-ilmiy xodim, dotsent Toshkent sh.
O'zbekiston Respublikasi

Annotatsiya: Ushbu maqola mактабдан ташқари та'лим муассасалари билан махала fuqаролар yig'ini, yoshlар ittifoqi, umumta'lim maktablari, ichki ishlар o'rtasidagi hamkorlikka bag'ishlangan. Maqolada shuningdek "Barkamol avlod" bolalar mакtabining mazkur tashkilotlar bilan o'zaro aloqalar darajasi ham tadqiq qilingan, shuningdek, hamkorlikka asoslangan taklif va tavsiyalar ko'rsatib o'tilgan.

Har bir halq, millat o'zining kelajagini qurar ekan, eng muhim masalaga ya'ni yoshlarning ma'nnaviyati, jismoniy kamoloti, salomatligi, bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratadi. Bu borada yosh avlodni tarbiyalashda ota-onadan tashqari mahalla va ta'lim muassasalarining hamkorligi muhim ahamiyat kasb etadi. Bolaning keljakda qanday inson bo'lib voyaga yetishi ota-on, ma'lum darajada mahalla va bola yashaydigan muhitning ta'siriga ham bog'liqdir.

Hayotiy tajribalar shuni ko'rsatadiki, tarbiya ishlарini mutasaddi tashkilotlar bilan hamkorlikda olib borilishi doimo ijobiy natija bergen, shu sabab yosh avlodni tarbiyalashda mahalla va "Barkamol avlod" bolalar maktablari hamkorligini yanada mustahkamlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotlar doirasida 466 nafar respondentlar o'rtasida onlayn so'rovnomada o'tkazilib, so'rovnomada tuzilgan 8 ta savollarga asosan "Barkamol avlod" bolalar maktablarining jamoat tashkilotlari bilan o'zaro aloqalari masalalariga urg'u berildi. So'rovnomada natijalariga ko'ra, "Barkamol avlod" bolalar maktablari bilan hamkorlikni tashkil etishda, ya'ni mакtab yoshidagi bolalarni to'garaklarga jalb etish, to'garaklar faoliyatiga amaliy va metodik yordam ko'rsatish bo'yicha umumta'lim maktablari hamda mahalla fuqarolar yig'inining hissasi katta ekanligi aniqlandi. (1-rasmga qarang)

**1-rasm**



Bunda umumta'lim maktablarining ulushi **49.2%** ni ularning "Barkamol avlod" bolalar maktablarining faoliyatini tashkil etishdagi roli yuqori bo'lib, **48.5%** ni, mahalla fuqarolar yig'inining **25.6%** ni, ichki ishlar bo'limining muktab faoliyatini tashkil etishdagi roli **9%** ni va yoshlar ittifoqi bilan hamkorlik ishlari **9.5%** ni tashkil etishini ko'rsatmoqda.

Umumta'lim maktablari rolining yuqoriligi bizning fikrimizcha, umumta'lim maktablarining o'zida "Barkamol avlod" bolalar maktablarining tarmoqlarini ochilishi bo'lishi mumkin, lekin mahalla fuqarolari yig'inining roli boshqa tashkilotlarga nisbatan yuqoriligi quvonarli hol. Zeroiki, muktab yoshidagi bolalarning muktabdan tashqari bo'sh vaqtlarida o'zları yoqtirgan ish bilan shug'ullanishi va shu asnosda ularning biror bir kasb-hunarga yo'naltirishi va sertifikatga ega bo'lishi ham ota-onalar va har qanday jamoat tashkilotlarining asosiy maqsadlarini tashkil etadi. Lekin yoshlar ittifoqi yetakchilari uchun "Barkamol avlod" bolalar maktablari faoliyatida ishtirok etishi, ularning asosiy vazifalaridan biri bo'lishi lozim. Shuningdek, o'tkazilgan tadqiqotlarda hududlardagi "Barkamol avlod" bolalar maktablariga jamoat tashkilotlari tomonidan qaratilayotgan e'tibor, moddiy-texnik yordam, muktabning umumiyligi ta'mir ishlari, to'garaklarni xom-ashyo bilan ta'minlash masalalari bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan ham onlayn so'rovnomaga o'tkazilib, uning natijalari quyidagi rasmda ko'rsatilgan. (2-rasmga qarang)

Jamoat tashkifetlari bilan omaga oshirilgan hamkorlik ishlari deyarida erishigan natijalar



2-rasm

Yuqoridagi 2-rasmda ko'rsatilganidek, respondentlarning **33 %** "Barkamol avlod" maktablarini jamoat tashkilotlar yordami mavjudligini (maktablarni xom ashyo bilan ta'minlashda), **26 %** esa, endi bu tashkilotlar bilan hamkorlikni boshlash arafasida ekanligini, ya'ni hali ishlar amalga oshirilmaganligini, **24 %** bu tashkilotlar muktabning ta'mir ishlariiga yordam berayotganligini, **17 %** respondentlar hozirgi davrda zamon talabiga aylangan axborot kommunikatsion texnologiyalari vositalari bilan yordam ko'rsatganliklarini belgilaganlar.

Maqola matnining asosiy mazmuni mahallaga qaratilgan ekan, Mahallalarda uyushmagan yoshlar muktabdan tashqari ta'limga muassasalariga qiziqtirib olib kelish, iqtidorli yoshlarni qo'llab quvvatlash, imkoniyati cheklanganlar, ya'ni mahalladagi "Ayollar daftari", "Yoshlar daftari" ro'yxatiga kiritilgan ijtimoiy ko'makka muhtoj fuqarolar hamda, uyushmagan yoshlarni turli to'garaklarga jalb qilish, ularning ma'naviy dunyoqarashini shakkantirish va shunga o'xshash ezgu ishlarni hamkorlikda yo'lga qo'yib olish muhim vazifalardan ekanligini ta'kidlash lozim.





11-SON

**O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSİYALAR VA
ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI**

20.09.2022



Maktablar asosan bilim, tarbiya berish bilan shug'ullansa, Maktabdan tashqari ta'lif muassasalari ularning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazishga ko'mak beradi.

"Barkamol avlod" bolalar maktabi tomonidan maxallada istiqomad qilayotgan fuqarolarni maktabdan tashqari ta'lif muassasalari faoliyati mazmunini yorituvchi konsepsiya, qo'shimcha ta'lif maqsad va vazifalari, o'quv mashg'ulotlarining mohiyati to'g'risidagi ma'lumotlardan xabardor etish, bolalar ota-onalari o'rtaida pedagogik ma'rifatni tashkil etish, ularni metodik bilimlar bilan qurollantirish o'zaro hamkorlikning asosiy mohiyatini tashkil etadi.

Maktabdan tashqari ta'lif tizimida quyida keltirilgan vazifalar maxalla fuqarolar yig'inlari bilan o'zaro hamkorlikka amalga oshirilsa, yosh avlodga ta'lif-tarbiya berishda har bir tashkilot baholi qudrat o'z hissasini qo'shgan bo'ladi:

✓ maxalla fuqarolar yig'inlari mas'ullari to'garaklar mashg'ulotlariga qatnashishlariga erishish, qiziqishlari bo'yicha oilaviy klublar tashkil etish, o'quvchilar qobiliyatlariga muvofiq muayyan yo'nalishda ta'lif jarayoniga jalb etish;

✓ maxalla fuqarolar yig'inlari hamkorligida oilaviy bayramlar, musobaqalar va festivallar, oilaviy ma'ruzalar, dam olish klublarini tashkil etish asosida bo'sh vaqt ni o'quvchilar va ota-onalarning birlgilikda o'tkazishlariga imkon beruvchi tizimni yaratish;

Shu bois, maktabdan tashqari ta'lif muassasalaridagi asosiy vazifalarni hamkorlik tashkilotlar ko'magida yoshlarni to'g'ri yo'lga boshlash yoshlarga bo'lgan e'tibni kuchaytirish farzandlarmizning aqliy salohiyati qobiliyatni va iqtidorini ro'yobgaa chiqarish, ularnitom ma'noda barkamol insonlar bo'lib voyaga yetishi, yoshlarimizning talab ehtiyojlari hamda manfaatlarini qondirish yo'lida ijobjiy qadam bo'lishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-sentabrdagi PQ-4467-son qarori;

2. Xalq ta'lifi vazirining "Xalq ta'lifi tizimidagi maktabdan tashqari ta'lif samaradorligini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2019-yil 2-oktabrdagi 321-son buyrug'i;

3.Gurevich A.V., Xijnyakova Ye.V. Sotsialnoe proektirovanie;-// Uchenicheskoe proektirovanie i obrazovanie - strategicheskoe napravlenie razvitiya obrazovaniya. M., 2007;

4.Akramova F.A.Zamonaviy ta'lif//-"Barkamol avlod tarbiyasida pedagogkadrlar mustaqil ta'limining o'ziga xos ta'siri" T.,2014,3

